



Hindistonning dastlabki madaniyati

Maxmaraimova Parvina Navruz qizi

Yuldoshova Feruza Akram qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika

instituti talabalari

Annotatsiya: Hind sivilizatsiyasi dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri bo'lib, u Hind vodiysi hududida miloddan avvalgi 2500-yillarda shakllangan. Bu sivilizatsiya Mohenjo-Daro va Harappa kabi rivojlangan shaharlari, muhandislik yutuqlari, yozuv tizimi, savdo aloqalari va ijtimoiy tartibi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada Hind daryosi bo'yidagi qadimiy sivilizatsiya – Harappa madaniyati haqida ilmiy tahlil beriladi. Shaharsozlik, iqtisodiy faoliyat, yozuv tizimi va diniy e'tiqodlar asosida ushbu madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Harappa, Mohenjo-Daro, Hind sivilizatsiyasi, shaharsozlik, qadimiy yozuv, bronza davri, Hindiston tarixiy madaniyati.

Hindiston sivilizatsiyasi insoniyat tarixidagi eng qadimgi madaniy markazlardan biri hisoblanadi. Uning boshlang'ich bosqichi Hind daryosi havzasida joylashgan Harappa va Mohenjo-Daro kabi yirik shaharlarda shakllangan bo'lib, bu madaniyat miloddan avvalgi taxminan 2500–1500-yillarga to'g'ri keladi. Hind sivilizatsiyasi o'zining rivojlangan infratuzilmasi, murakkab ijtimoiy tuzilmasi va uzoq masofali savdo aloqalari bilan ajralib turgan. Hind sivilizatsiyasi hozirgi Pokiston va Hindistonning shimoliy-g'arbiy hududlarida joylashgan bo'lib, uning asosiy markazlari Harappa, Mohenjo-Daro, Lotal va



Kalibangan kabi shaharlardan iborat bo'lgan. Bu madaniyat Hind daryosi va uning irmoqlari atrofida rivojlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, bu madaniyat o'z vaqtida 1 million kv.km dan ortiq maydonni egallagan (Kenoyer, 1998).

Qadimgi Hind sivilizatsiyasini o'rganishning murakkab bo'lib, yozma ma'lumotlarning deyarli saqlanib qolmaganligidir. Hindlar o'zlarining iyeroglifli yozuviga ega bo'lganligiga qaramasdan, ularda tarixiy voqealarni qayd etib borish odat bo'lmagan. Masalan, Xitoyda bu ish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, boshqa xalqlar, jumladan, hindlar ham o'z tarixiga oid ma'lumotlarni Xitoy manbalaridan topishyapti. Mesopotamiya va Qadimgi Misrda ham shunday yozuvlar olib borilgan. Qadimgi Hind sivilizatsiyasi dastlab hozirgi Pokiston hududida, Hind daryosi bo'ylarida shakllangan. Taxminlarga qaraganda, bu yerda ham xuddi Misrda Nil daryosi bo'ylaridagidek serhosil sug'orma dehqonchilik hududi paydo bo'lgan va shuning natijasida aholi o'ziga qulay bo'lgan bu hududlarda taraqqiy topa boshlagan. Arxeologik topilmalarga qaraganda Hindistonda qadimgi tosh asridayoq odamlar yashagan. Eneolit, ayniqsa, bronza davrida Hindistonning g'arbiy hududlarida o'ziga xos Qadimgi Hind sivilizatsiyasi shakllanadi. Uning eng rivojlangan davri mil. avv. III ming yillik — II ming yillik boshlariga to'g'ri keladi. Bu sivilizatsiyaning markazlari yirik shaharlar bo'lib, ularning xarobalari zamonaviy Harappa (Panjob viloyatida) va Moxenjo-Daro (Marhumlar tepaligi, Sind vodiysida) hududlarida topilgan va umumiy nom bilan Harappa madaniyati deb ataladi. (Ergashev 179b). Harappa madaniyatiga oid shaharlarda puxta rejalashtirilgan ko'chalar va mahallalar tizimi, g'ishtdan qurilgan ko'p xonali uylari, jamoat hammomlari, quduqlar va kanalizatsiya tizimi mavjud bo'lgan. Mohenjo-Darodagi “Buyuk hammom” diniy va ijtimoiy marosimlar uchun ishlatilgan bo'lishi mumkin. (Possehl, 2002). Bu kabi o'ziga xos inshootlar ushbu sivilizatsiyada ijtimoiy hayot tashkil etilganligini ko'rsatadi. bundan tashqari sivilizatsiyaning asosiy belgilaridan biri hisoblangan yozuv bo'lib, ammo Harappa yozuvi hali to'liq o'qilmagan. U piktografik belgilarga asoslanganligi va muhrlar, sopol buyumlar ustida qo'llanilgan. Ushbu yozuv savdo, boshqaruv va diniy maqsadlarda



ishlatilgan bo'lishi ehtimoli katta. Yozuvlarning murakkab bo'lganligi ularning yuksak savodxonlik darajasiga ega ekanligini ko'rsatadi (Wright, 2010). Hind sivilizatsiyasi aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik, baliq ovlash, hunarmandchilik va uzoq masofali savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullangan. Dehqonchilikdagi asosan bug'doy, arpa va paxta yetishtirish bilan shug'ullanishgan. Hunarmandchilikda esa sopol, tosh, mis, bronza va zargarlik buyumlarini mahurat bilan tayyorlaganlar. Arxeologlar tomonidan topilgan buyumlar shuni ko'rsatadiki, hindlar mesopotamiyaliklar bilan yuksak savdo aloqalarini olib borganlar (Ratnagar, 2004). Sivilizatsiya aholisining diniy qarashlarini topilgan haykalchalar orasida ona xudo (fertilitet ramzi), erkak xudo (ehtimol Shiva prototipi) va muqaddas hayvonlar – ayniqsa buqa tasvirlari muhim o'rin tutganligida qadimdan ham ular ko'phudolikka sig'inganlarini ko'rishimiz mumkin. Bu e'tiqod shakllari esa keyinchalik hinduizmd dinining paydo bo'lishi va rivojlangan diniy qarashlarga asos bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi (Parpola, 1994).

Hind daryosi bo'yida shakllangan Harappa sivilizatsiyasi bronza davrining eng taraqqiy etgan madaniyatlaridan biri sifatida tarixda o'z o'rniga ega. Uning shaharsozlik yutuqlari, savdo-sotiq tizimi, yozuv madaniyati va diniy e'tiqodlari Hindiston tarixidagi daslabki sivilizatsiya va u Hindiston tarixiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Hozirgi kunda bu madaniyat arxeologik va tarixiy tadqiqotlarning asosiy obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etib o'rganilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eegashev Sh. (2016). Qadimgi sivilizatsiyalar. Toshkent “O'zbekiston”
2. Kenoyer, J. M. (1998). Ancient Cities of the Indus Valley Civilization. Oxford University Press.
3. Possehl, G. L. (2002). The Indus Civilization: A Contemporary Perspective. Rowman Altamira.



4. Wright, R. P. (2010). The Ancient Indus: Urbanism, Economy, and Society. Cambridge University Press.
5. Ratnagar, S. (2004). Trading Encounters: From the Euphrates to the Indus in the Bronze Age. Oxford University Press.
6. Parpola, A. (1994). Deciphering the Indus Script. Cambridge University Press.
7. McIntosh, J. (2008). The Ancient Indus Valley: New Perspectives. ABC-CLIO.